XORAZM VOHASI PALEOEKOLOGIYASI VA IBTIDOIY MADANIYATNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Ismailov Ulug‘bek Saparboy o‘g‘li,
https://orcid.org/0009-0005-0907-0018

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19684578

Annotatsiya. *Maqolada Janubiy Orolbo‘yi hududi va Quyi Amudaryoning paleoekologiyasi hamda antropogen landshaftlarning shakllanish jarayonlari tadqiq etiladi. Mintaqaning relyefi, iqlimi, daryo tizimi va tarixiy antropogen faoliyati tahlil qilinadi, shuningdek paleolit va neolit davrlaridagi inson migratsiyalari hamda manzilgohlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Janubiy Orolbo‘yi hududi, Quyi Amudaryo, paleoekologiya, antropogen landshaftlar, relyef, daryo deltasi, migratsiya.*

Аннотация*. В статье исследуются палеоэкология Южного Приаралья и Нижнего Амударьи, а также процессы формирования антропогенных ландшафтов. Анализируются рельеф региона, климат, речная система и историческая антропогенная деятельность, а также рассматриваются миграции человека и поселения в эпохи палеолита и неолита.*

Ключевые слова: *Южное Приаралье, Нижний Амударья, палеоэкология, антропогенные ландшафты, рельеф, дельта реки, миграция.*

Abstract*. This article examines the paleoecology of the Southern Aral Sea region and the Lower Amu Darya, as well as the processes of formation of anthropogenic landscapes. The study analyzes the region’s relief, climate, river system, and historical human activities, and also considers human migrations and settlements during the Paleolithic and Neolithic periods.*

Keywords*: Southern Aral Sea region, Lower Amu Darya, paleoecology, anthropogenic landscapes, relief, river delta, migration.*

Kirish. Geografik jihatdan Janubiy Orolbo‘yi hududi va Quyi Amudaryo strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning relyefi, iqlimi va daryo tizimlari tarixiy hamda antropogen jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Suv manbalari, deltalar va qum barxanlarining mavjudligi inson faoliyati va madaniy rivojlanish uchun sharoit yaratgan. Tadqiqotning maqsadi – mintaqaning paleoekologik xususiyatlarini aniqlash va antropogen landshaftlarning shakllanish jarayonlarini o‘rganishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. O‘rta Osiyo va Quyi Amudaryo paleoekologiyasi hamda antropogen landshaftlariga oid tadqiqotlar mintaqaning tabiiy-geografik va tarixiy xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. B.A. Baratov va hammualliflar [1] hudud relyefi va iqlimini batafsil tavsiflagan, Ya. G‘ulomov [2] Xorazm sug‘orish tarixi va daryo tizimini o‘rgangan. U. Abdullaev va K. Sobirov [3] Xorazm qadimgi aholisining faoliyatiga geografik sharoit ta’sirini tadqiq qilgan.

E.A. Vinogradova [4] va E. Bijanov [7] ishlari paleolit davri manzilgohlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. A.V. Vinogradov va E.D. Mamedov [8]

Qizilqum va Sulton-Uvays hududlarida ibtidoiy odamlarning migratsiyasini o‘rgangan.

Shuningdek, B.I. Vaynberg [5] hamda A.S. Kes [6, 11] tabiiy sharoitlar, daryo deltasi va antropogen landshaftlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatib bergan. Geologik tadqiqotlar [10] Amudaryoning allyuvial-delta tekisliklari shakllanishi va mintaqaning geomorfologik rivojlanishini yoritadi. Umuman olganda, adabiyotlar tabiiy va antropogen jarayonlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlaydi hamda maqola tahlili uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metod. Tadqiqot geologik, geomorfologik va arxeologik ma’lumotlarga asoslangan. Manbalar sifatida daryo deltasi, Sulton-Uvays tog‘ tizimi, qum barxanlari hamda arxeologik topilmalar (Burli III, Esen II va Qizilqum paleolit materiallari) foydalanildi. Tahlil iqlim, relyef, suv resurslari va antropogen faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishga qaratildi.

Muhokama. Janubiy Orolbo‘yi hududi Quyi Amudaryoning o‘ng va chap qirg‘oq hududlarini o‘z ichiga oladi. Xorazm vohasi Turon pasttekisligining o‘rta qismida, Qoraqum va Qizilqum oralig‘ida joylashgan. Hududda baland tog‘lar yo‘q. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Sulton-Uvays tog‘larining maksimal balandligi 500 m dan oshmaydi, shu sababli shimoliy sovuq va janubiy iliq havo oqimlari to‘siqsiz kirib kelgan [1, 283–284].

Sulton-Uvays tizimining g‘arbiy qismi – Shayx Jalil tog‘lari – shimoli-g‘arbga 8 km cho‘zilgan qoyali balandliklardan iborat. G‘arbiy yonbag‘ir Amudaryoga tik tushib, 4 km davomida qirg‘oq chizig‘ini shakllantiradi. Sharqda esa Qizilqum ichkarisiga Ayazqala, Ko‘kcha, Jonbosqala kabi tepaliklar kirib boradi. A.D. Arxangelskiy fikricha, bu balandliklar Sulton-Uvaysni Tyanshan bilan bog‘laydi [2, 23].

Umuman, O‘rta Osiyodagi relyef, iqlim va tuproq xilma-xilligi o‘simlik qoplami turlarini belgilab, tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida aholining xo‘jalik faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

So‘nggi pleystotsenda Turon pasttekisligining katta qismi muzlik yotqiziqlari bilan qoplangan bo‘lsa, Sulton-Uvays etaklari muzdan xoli bo‘lib, aholi joylashuvi va etnomadaniy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratgan [3, 63–66]. Bu yerda yuqori paleolitga oid Burli III manzilgohi aniqlangan [4, 74–77].

Hudud daryolari tog‘lardan boshlanib, cho‘l pasttekisligida yo‘qoladi. Ularning vodiylari va deltalarida qadimdan odamlar yashagan. Yirik vohalar Zarafshon, Murg‘ob va Tajan bo‘ylarida shakllangan. Cho‘l zonasining ikki yirik daryosi – Amudaryo (Vaxsh, yunoncha Oks, o‘rta asrlarda Jayhun) va Sirdaryo (yunoncha Tanais va Yaksart, o‘rta asrlarda Sayhun) alohida ahamiyat kasb etadi [5, 17].

Barcha davrlarda asosiy shart ichimlik suvi mavjudligi bo‘lgan. A.S. Kes ta’kidlaganidek, “Cho‘lda hayot har doim suv manbalari atrofida jamlanadi. Bu yerda inson nafaqat ichimlik suvi, balki o‘lja ham topgan” [6, 5]. Esen II paleolit yodgorligi 1977-yilda E. Bijanov tomonidan Ustyurtda aniqlangan [7, 48]. Qizilqum janubi-g‘arbiy qismidagi paleolit materiallari A.V. Vinogradov va E.D. Mamedov tomonidan o‘rganilgan [8]. Topilmalar ibtidoiy odamlar migratsiya yo‘llari ushbu hududdan o‘tganini ko‘rsatadi.

Xorazm vohasining tarixiy xususiyati shundaki, u Volga-Ural va Shimoliy Qozog‘iston dashtlarining janubiy chegarasida joylashgan. Qadimgi qabilalar dastlab ovchilik va baliqchilik, keyinchalik chorvachilik bilan shug‘ullangan [9, 45]. Neolit davrida Xorazm vohasida dastlabki ovchi va baliqchilar joylashgan. Ungacha vohada manzilgoh izlari aniqlanmagan, biroq qo‘shni hududlardagi tosh davri yodgorliklari Xorazm chegaralari ibtidoiy odamlar uchun ma’lum bo‘lganini ko‘rsatadi.

Daryo va shamol jarayonlari O‘rta Osiyo landshaftlari shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon katta ahamiyatga ega. Ularning qadimgi o‘zanlari tekisliklarni allyuvial yotqiziqlar bilan qoplagan. Orol dengizi shakllanishi Amudaryo, Sirdaryo, Chu va Sari-Su uchun yopiq havza bo‘lib, to‘rtlamchi davrning ikkinchi yarmida gidrografik tarmoqning qayta tashkil topishiga olib kelgan [10, 272].

Tadqiqotchilar fikricha, Amudaryoning allyuvial-delta tekisliklari qadimiy va keng ko‘lamli jarayon natijasida shakllangan. Neogen davrda tektonik jarayonlar Markaziy Osiyo tog‘larini ko‘targan va yirik daryo oqimlarini, jumladan pale-Amudaryoni shakllantirgan [11, 72–73]. To‘rtlamchi davr o‘rtalaridan boshlab Amudaryo Qoraqum orqali Pitnakdan Taxiatoshgacha bo‘lgan pasttekislikni shakllantirgan. O‘ng qirg‘oq pasttekisligi Sulton-Uvays va tepaliklar bilan tavsiflanadi. Daryo sathi oshganda suv barxanlar oralig‘ini to‘ldirib, suv havzalari hosil qilgan [3, 63–66].

Natijalar. Tadqiqot natijalari Janubiy Orolbo‘yi va Quyi Amudaryo hududi inson faoliyati va madaniy rivojlanish uchun qulay geografik, geomorfologik va gidrologik sharoit yaratganini ko‘rsatadi. Sulton-Uvays tog‘lari, qum barxanlari va daryo deltasi iqlim hamda suv rejimini belgilab, qadimgi manzilgohlar va migratsiya yo‘llarini shakllantirgan. Paleolit va neolit yodgorliklari ovchilik, baliqchilik va chorvachilik rivojlanganini tasdiqlaydi. Antropogen landshaftlar asosan daryo oqimlari va suv resurslaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Xulosa. Janubiy Orolbo‘yi va Quyi Amudaryo inson faoliyati hamda madaniy rivojlanish uchun qulay geografik, gidrologik va paleoekologik sharoitga ega hudud hisoblanadi. Tadqiqot antropogen landshaftlar, daryo tizimi va aholi migratsiyasi

o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi hamda mintaqaning tarixiy-geografik taraqqiyotini anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Баратов П, Маматқулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. –Т.: «Ўқитувчи», 2002. – Б. 283–284.
2. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Т., 1959. – Б. 23.
3. Абдуллаев У., Собиров Қ. Қадимги Хоразм жамиятида кечган тарихий жараёнларга табиий-географик шароитнинг таъсири саҳифасидан (40-12- минг йилликлар) // “Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида” мавзусидаги халқаро илмий анжуман материаллари тўплами. – Урганч, 2020. – Б. 63-66.
4. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и средневековье. – М.: Восточная литература, 1998. – С. 74-77.
5. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. – VIII в. н.э. М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1999. – С. 17.
6. Кесь А. С. Природные факторы, обусловливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии. КСИЭ. Вып. XXX. – М., 1958. – С. 5.
7. Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // ВККФАН УзбССР. 1979, № 3. – С. 48.
8. Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный Лявлякан (Этапы древнейшего заселения и освоения Внутренних Кызылкумов) // МХЭ. Под общей редакцией С.П. Толстова. – М.: «Наука», 1975. Вып. 10. – 288 с.
9. Маткаримов, Х.О. Хоразм воҳасида археологик тадқиқотлар тарихи (қадимги даврга оид тарихий реконструкция муаммолари). – Бухоро: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – Б. 45.
10. Герасимов И.П., Марков К.К. Четвертичная геология (палеогеография четвертичного периода). – М.: Государственное учебно-педагогическое издательство Наркомпроса РСФСР, 1939. – С. 272.
11. Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: «Наука», 1981. – С.72-73.